



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MUROJAAT SHAKLLARI

**Aliqulova Madina Shavkat qizi**

*Olmazor tuman ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillarida murojaat shakllarining talqiniga to‘xtalib o‘tilgan. Har ikkala millatning nutqiy muloqotida kommunikantlar o‘rtasida hurmat kategoriyasini anglatuvchi ushbu murojaat shakllarining qo‘llanilishi va lingvomadaniy xususiyatlari o‘zbek va ingliz tilidagi badiiy asarlar hamda ijtimoiy hayotimizda uchraydigan matnlar tahlillari asosida ularning o‘xshash va farqli jihatlari yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, maqolani yozishda bir qator olimlarning qarashlari va ilgari surgan nazariyalaridan foydalanilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Murojaat, hurmat, fikr, ayol va erkak kategoriyasi, yosh, madaniyat, nostandart nutq.*

Bugungi davrda jahonda xalqlari adabiyotining turli tillarga tarjima qilinishi, shu orqali o‘sha xalqlarning tillari va madaniyati borasida axborot almashinuvchi sodir bo‘ladi. Bu kabi axborotlarni o‘zga xalq o‘quvchilariga yetkazishda murojatni o‘rni katta ahamiyatga ega. Murojat orqali millatlarning tili mujassam bo‘ladigan xalqlarning madaniyati, an‘ana va qadriyatlarini, turmush tarzi, ularning xarakteri va boshqa jihatlari xorijiy til o‘quvchilariga yetkaziladi.

So‘ngi yillarda yurtimizda chet tillariga ham tarjimaning boshqa sohalari qatori keng imkoniyatlar berilmoqda. Yurtimizda mustaqillikgacha bo‘lgan davrlarda jahon adabiyoti namunalari o‘zbek tiliga yoki o‘zbek adabiyoti durdonalari xorijiy tillarga bilvosita tarjima orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu kabi badiiy tarjima faoliyatlariga bevosita tarjima orqali yondashilmoqda. Har bir millatning milliy madaniyatida insonlar bir birlariga hurmat ko‘rsatishi muloqotning eng yuqori odob-axloqi hamda etiketi hisoblanadi. O‘zbek va ingliz tillarida nutqiy muloqotda kommunikantlar o‘rtasida muloqotning hurmat kategoriyasini saqlab qoluvchi “sen” va “siz” murojaat shakllari mavjud. Ushbu o‘zbek tilidagi murojaat shaklini Q.SH.Qaxarov “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” orqali quyidagicha ta’riflaydi, sen – kishilik olmoshi, ikkinchi shaxs, birlik.

O‘zidan kichik, yaqin kishiga murojaatda ishlatiladi.

Ko‘pchilikka murojaatda dag‘alilik yoki mensimaslikni bildiradi.

Siz – kishilik olmoshi, ikkinchi shaxs, ko‘plik.

Ko‘pchilikka murojaatda ishlatiladi.

1. O‘zidan katta kishiga va, umuman, har qanday shaxsga nisbatan hurmatni



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

bildiradi<sup>1</sup>.

Bunga qo‘shimcha tariqasida “sen” muloqotda yana bir ya’ni jonsiz narsalarga murojaat tarzida yoki ularning nomi o‘rnida foydalanishning shaklini keltirishimiz mumkin: “*Eh, yoshligim sen bunchalar tez meni tark etding*”.

“Ingliz tilining izohli lug‘ati”<sup>2</sup>da esa quyidagicha beriladi: “You” o‘zbek tilidagi sen va siz murojaat shaklini anglatib keluvchi birgina shakldir:

- nominativ yoki obyektiv holatda ikkinchi shaxs olmoshi yakka yoki ko‘plikda, murojaat qilingan shaxs yoki shaxslardan ishlatiladi;
- jumla mavzusi bilan qo‘shimchada ishlatiladi, ba’zan mavzuni ta’qib qilish uchun takrorlanadi;
- norasmiy. (gerund oldidagi sizning olmoshi o‘rniga ishlatiladi);

Ingliz tilidagi you olmoshi- “sen” va “siz” shakllarining qarama qarshiligi nutqiy odatga xos hamma vaziyatlarda ishlatiladi va barcha til birliklariga qo‘shiladi, ammo hech qanday ushbu olmoshlari bilan qo‘llanilayotgan fe’lga affiks qo‘shilmaydi, shuningdek, tarjima qilinayotganda kontekstning ma’nosiga bog‘liq bo‘lgan holda sen yoki siz deb tarjima qilinadi. O‘zbek tilida esa sen va siz shakllari birlik va ko‘plikdagi kishilik olmoshlari bilan birga fe’lning shaxs-son affikslarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- *Siz bizdan xavotir olmay uyingizga ketavering!*

yoki,

- *Sen o‘z vazifangni nimalardan iborat ekanligini bilishing shart!*

Demak, o‘zbek tilida siz olmoshiga –iz/-z, -siz,-ngiz, -(i)ng yoki sen olmoshiga –ing/-ng, -san, -ng, affikslarning qo‘shilishi orqali hurmat ma’nosini ifodalanishini va ingliz tilida bunday affikslarning mavjud emasligini yuqorida keltirilgan misollarda ko‘rishimiz mumkin.

T.P.Ariskina erzyan tilida sen-ton/siz-tin olmoshi ikkinchi shaxs ko‘plik fe’l shakli bilan qo‘llanilsa, venger tilida esa sen-te/siz-dn,onbk, maga,maguk olmoshi uchinchi shaxs birlik va ko‘plik fe’l shakllari bilan qo‘llanish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi, shu bilan bir qatorda sen va siz shakllaridan foydalanishning quyidagi formalarini aniqlaydi:

1. Suhbatdoshning tanishlilik darajasi;
2. Rasmiy/norasmiy muloqot muhiti;

<sup>1</sup> Қ.Ш.Кахаров “Ўзбек ва немис нуткий этикетларининг қиёсий тадқиқи” Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон – 2020, 86-б



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

3. Muloqotchilarning o‘zaro munosabati;
4. Suhbatdoshlarning muloqotdagi tengligi / tengsizligi;

Bundan ko‘rinib turibdiki, asrlar davomida isoniy munosabatlarrivojlanib kelgan davrlardan boshlab shaxslar o‘z muomala meyorlarini turlilingvistik vositalar asosida belgilaydilar.

Nguen Vu Xiong Ti o‘zining tadqiqotlari davomida sen/siz shakllaridan foydalanish subyektiv ekanligini, muloqotda “siz”dan “sen”ga o‘tishi, suhbatdoshlardan birining rasmiy munosabatlardan yaqinroq va do‘stona munosabatlarga o‘tish istagini aks ettirishini va “siz”dan “sen”ga o‘tish kommunikativ harakatning ikkala ishtirokchisi tomonidan qabul qilinishi kerak ekanligini ta’kidlaydi.

C.Liu ingliz tilida sen/siz ma’nosini anglatuvchi faqat “You” ikkinchi shaxs olmoshi bor ekanligini, u birlikda va ko‘plikda muloqotda retsiyentni bildirib kelishini, mandarin tilida "ni" (sen/siz) olmoshi ikkinchi shaxsning birlikda va “nimen” ko‘plikda ifodalanishini ta’kidlab o‘tadi. Bundan tashqari, “nin” olmoshi ham ma’lum bir qabul qiluvchiga hurmat ko‘rsatadigan yagona shakldir.

G.Zikrillayev o‘z tadqiqotlarida -siz va -sen murojaat shakllarini quyidagi munosabatlarga bo‘ladi deb yozadi:

1. Qarindoshlik munosabati.
2. Tanish-notanish yoki yaqin emaslik munosabati.
3. Yosh orasidagi munosabat.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida asosan murojaatning “sen” shakli ishlatiladi. Qarindoshlar, ota-ona, aka-uka, bobo-buvilar o‘rtasidagi muloqotda ham o‘zbek tilidagi singari yosh va jinsga ahamiyat berilmaydi va faqatgina “sen”dan foydalaniladi, farqli tomoni shundan iboratki, matnni boshqa tillarga tarjima qilingandagina tarjima qilinayotgan tilning madaniyatidan kelib chiqqan holda “siz”ga murojaat qilinishi mumkin.

## REFERENCES

1. Қ.Ш.Кахаров “Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи” Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон – 2020, 86-б
2. Kaipbergenova, D. (2016). СНЕТ ТИЛИ О’QITUVCHILARINING KASBIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIC MAHORATI HAQIDA. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 33(4), 48-50.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

3. Каипбергенова, Д. О. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ НА ОСНОВЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. In *Инновационное развитие: потенциал науки и современного образования* (pp. 211-213).
4. Каипбергенова, Д. О. (2016). The role of language learning strategies in learning foreign languages. *Молодой ученый*, (12-4), 83-85.
5. Orakbaevna, K. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA SHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ZAMONAVIY METOD VA METODOLIYA. *Научный Фокус*, 1(1), 1472-1478.
6. Orakbaevna, K. D. (2023). GLABALLASHUV DAVRIDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGI. *Научный Фокус*, 1(1), 1466-1471.
7. Kaipbergenova, D. (2023). BUGUNGI KUNDAGI MAMLAKATIMIZDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI. *World scientific research journal*, 15(2), 3-7.
8. Каипбергенова, Д., & Жуманиёзова, Н. С. (2023). БУГУНГИ КУН ТАЛАБА ЁШЛАРИДА АХЛОҚИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 652-668.
9. Orakbayevna, K. D., Normuminovich, M., & Muxiddinova, M. Z. (2021). English language teaching methodology for non-native speakers. *Linguistics and Culture Review*, 5(S3), 1721-1725.